E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

UO'K:6 31.4:55:912

BO'Z TUPROQLAR SHAROITIDA AGROKIMYOVIY XARITANOMA TUZISHDA YANGI QARASHLAR

Xashimov Farhod Xashimovich
professor, far.hoshimov@gmail.com
Tashkenbayev Otabek Negmatovich
dotsent,tashkenbayevotabek@gmail.com
Xo'shboqova Zubayda Erkin qizi
Magistrant
xoshboqovazubayda786@gmail.com
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti.

Annotatsiya: Maqolada Bo'z tuproqlarda agrokimyoviy xaritanoma tuzishning dolzarbligi va zarurati keng yoritilgan.
Kalit so'zlar: Agrokimyoviy xaritanomalar, kislotalilik ,ishqorlilik sho'rlanganlik, organik va mineral o'g'itlar, azot, fosfor, kaliy,
Аннотатция:В статье расширено произиодство и подребность предприятия агрохимического производства в почве.
Ключевые слова: Агрохимическая карта,кислотность ,щелочность, соленость ,органические и минеральрные удобрения, азот, фосфор, калий.
Anotation: The relevance and necessity of creating an agrochemical map of gray soils is widely covered in the article.
Key words: Agrochemical maps,acidity,alkalinity,salinity,organic and mineral fertilizers,nitrogen,phosphorus,potassium,

Kirish.

Hozirgi davrda respublikamizda o'g'it qo'llash tizimini yanada rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lib, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida qator oralariga ishlov beriladigan ekinlarni yetishtirilishi, dehqonchilikni mineral o'g'itlar bilan ta'minlash uchun imkoniyatlarning mavjudligi, o'simliklarni oziqlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy muassasasa va xodimlarning yetarliligi shular jumlasidandir.

Dehqonchilikda mineral o'g'itlarni qo'llash intensiv xo'jalik yuritishning eng muhim yo'nalish hisoblanadi.Bu yo'nalish davlat ravnaqi va qudratining unumdorlikni oshirishning asosi hisoblanadi. O'g'itlardan foydalanib qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishda o'simliklarning biologik xususiyatlarini bilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etish, agrokimyoviy xaritanomadan unumli foydalanish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan ekinlarga o'g'it me'yorlarini belgilashda ilmiy – tadqiqot institutlarida amalga oshirilayotgan tajribalarning natijalaridan va ishlab chiqarish ilg'orlarining yutuqlaridan samarali foydalanish zarur.

Mavzuning dorzarbligi va zarurati. O'zdavrloyiha, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti, Respublika agrokimyo stansiyalari ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini ko'rsatishicha, dehqonchilik doirasidagi sug'orib haydaladigan tuproqlarda fosfor va kaliyning, ayrim yerlarda hatto azotning ham harakatchan shakldagi miqdori ma'lum darajada kamayib borayotganligi namoyan bo'lmoqda. Ya'ni 1982-yildagi ko'rsatkichlarni 2018-yildagi ko'rsatkichlar bilan solishtirganda azot bilan kam va o'rtacha ta'minlangan yerlar o'rtacha 18% gacha ko'paygan, yuqori ta'minlanganlarining maydoni esa 8-10% ga kamaygan.Fosfor bilan past va o'rtacha darajada ta'minlanganlarining maydoni 19% ga ko'payib, yuqori darajada ta'minlanganlari 14% ga kamaygan.

Harakatchan kaliy bilan ta'minlanmagan va kuchsiz ta'minlangan sug'oriladigan yerlar 10%ga ko'payib, o'rtacha va yuqori darajada ta'minlanganlari 20-25% kamaygan, shunday ekan yaqin yilarda barcha fermer xo'jaliklarda tuproqdagi xarakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy

miqdoriga bog'liq xolda agrokimyoviy analizlar o'tkazib har bir fermer xo'jaliklarda agrokimyoviy xaritanomalar tuzishni taqozo etadi Xaritogrammalar imkoni boricha ko'p miqdordagi oziq elementlarga tuzilishi kerak, chunki dehqonchilikning omillarini almashtirib bo'lmaslik qonuniga muvofiq bir element yetishmasligini boshqa element bilan to'ldirib bo'lmaydi va bu esa o'simliklar tomonidan boshqa elementlarni samarali o'zlashtirilishiga imkon bermaydi**.**

Tadqiqotning maqsadi. Tuproqni asosiy oziq elementlar bilan ta'minlanganlik darajasini, qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanishining kimyoviy sharoitini (kislotali, ishqoriylik, sho'rlanganlik) o'rganish va o'g'itlarni to'g'ri qo'llash uchun kerak bo'ladigan eng samarali agrokimyoviy xaritalarni tuzish.

Xulosa: O'simlikka yetarli darajada o'sish uchun zarur bo'lgan sharoit va oziqalar bilan ta'minlanganda yuqori hosil berish xususiyatiga ega bo'ladi. Lekin Respublikamizda dehqonchilik qilinayotgan maydonlarning 30 foizi har xil darajada dehqonchilikka yaroqsiz holatda. Bundan tashkari o'g'itlarni noto'g'ri qo'llanishi evaziga tuproq shurlanishi paydo bo'lmoqda . O'g'it qo'llash tizimi shu holatni o'rganib har bir sharoit uchun alohida tadbirlar, o'g'it me'yorlari ishlab chiqib o'g'it turi, o'g'itlash muddati va usullarini belgilab yuqori hosildorlikka erishish tadbirlarini ishlab chiqadi. Dunyo olimlarining ko'pchilik kuzatishlari tuproqdagi asosiy oziq moddalarning miqdori bilan o'simliklarning o'g'itlarini qo'llashga bo'lgan talabi o'rtasida aloqa borligi ko'rsatdi. Agar tuproq harakatchan fosforga boy bo'lsa, fosforli o'g'itlarni qo'llash yuqori qo'shimcha hosil olishga imkon bermaydi. Shu bilan birga harakatchan fosfori kam bo'lgan tuproqlarda fosforli o'g'itlarni qo'llash hosilni ancha oshiradi. Shunday qilib tuproqni harakatchan oziq elementlar bilan ta'minlanganlik darajasini bila turib qishloq xo'jalik ekinlarining o'g'itlarga bo'lgan talabini aniqlash mumkin.Bundan ko'rinib turibdiki agrokimyoviy xaritanoma tuzish ekin hosildorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.Agarda o'g'itlar agrokimyoviy xaritanomadagi ko'rsatgichlar bo'yicha qo'llanilsa yuqori hosildorlikka erishiladi qolaversa iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'ladi, tuproq meliorativ holati yomonlashivuning oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. B.S.Musayev "AGROKIMYO" SHarq nashriyot.Toshkent-2001-yil.
2. J.Sattorov,S.Sidiqov,S.Abdullayev,A.Ergashev,Z.Xaidmuhamedova,Ya.Kulmurodova,U. Qosimov,N.Akbarov. "AGROKIMYO" Cho'lpon nomidagi nashriyot. Toshkent - 2011.
3. Musaev B.S Akbarov N. O'zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi. Toshkent "Universitet 1996
4. Masudov J.M. Nagayev N.G Akrmov I.A Qo'ziev R. Axmedov U.A Tuproq xaritalari va yerlarni baxolash hujjatlaridan foydalanish Toshkent 2000 yil 7-9 bet.
5. Tolipov G.A G'ulomov H. Maxsudov J. Akramov I. O'zbekiston Respublikasi yer kadastiri Toshkent 1994-yil 42-43 bet.
6. Turapov I. Namozov X. Jo'rayev G. Madartov B. Sug'oriladigan tuproqlarda xarakatchan fosfor va kaliy miqdorlarining agroxim kartagrammalarini tuzish bo'yicha ma'lumotlar. Ilmiy to'plam Toshkent 2003.
7. Turapov I. Nomazov X. Tuproq xaritalari agroxim kartogrammalarini tuzish va foydalanish maruza matnlari Toshken 2003-yil 55-54 betlar.
8. Sidiqov S. Satarov J.S. Tuproqlarni agrokimyoviy xaritalash va o'g'itlardan differentsial foydalanish. Toshkent "universitet" 1993-yil .
9. O'zbekiston SSR kalxo'z va sovxozlarda o'g'itlardan foydalanishga oid tavsiyalar. 1980-yil .
10. Niyozullaev,Otabekov va boshqalar "Agrokimyodan amaliy mashg'ulotlar" Toshkent "Mehnat"1989 yil
11. F.A.YUdin Metodika agroximicheskiy issledovaniy.Moskva. «Kolos» 1980
12. YU.Fedorin.APonamareva «Sostavlenie agroximicheskix kartogramm» Kazsel'xogiz 1964g Alma –Ata.